UO‘K 81

ZULFIYA MO‘MINOVA IJODIDA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Yusupova Dildora Yunus qizi,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi doktoranti
dilyusupova3330@gmail.com
Hojiyeva Sadoqat Hamzayevna,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek shoirasi Zulfiya Mo‘minova she’riyati lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoira ijodidagi milliy-madaniy xususiyatlarning fono-poetik, leksik-poetik, morfostilistik, sintaktik-stilistik hamda lingvomadaniy jihatlari yoritilib, ular she’riy matnda bajaradigan estetik-ekspressiv vazifalar aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Zulfiya Mo‘minova o‘zbek tilining boy ifoda imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan, o‘ziga xos ijodiy MENiga ega va ta’sirchan poetik uslub yarata olgan ijodkordir.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, semantika, stilistika, milliy-madaniy xususiyat, fonopoetika, morfostilistika, sintaktik-stilistik vositalar, lingvomadaniyat, badiiy matn.*

МАСТЕРСТВО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВА В ТВОРЧЕСТВЕ ЗУЛЬФИИ МУМИНОВОЙ

Аннотация. *В данной статье с лингвопоэтической точки зрения анализируется поэзия современной узбекской поэтессы Зульфии Муминовой. В исследовании освещаются фонопоэтические, лексико-поэтические, морфостилистические, синтактико-стилистические и лингвокультурологические аспекты национально-культурных особенностей в творчестве поэтессы, а также определяются их эстетико-экспрессивные функции в поэтическом тексте. Результаты анализа показывают, что Зульфия Муминова – это автор, мастерски использующий богатые выразительные возможности узбекского языка, обладающий самобытным творческим “Я” и сумевший создать впечатляющий поэтический стиль.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, семантика, стилистика, национально-культурная особенность, фонопоэтика, морфостилистика, синтактико-стилистические средства, лингвокультура, художественный текст.*

THE MASTERY OF WORD USAGE IN THE WORK OF ZULFIYA MO'MINOVA

Abstract. *This article analyzes the poetry of the contemporary Uzbek poet Zulfiya Mo'minova from a linguopoetic perspective. The research illuminates the phono-poetic, lexico-poetic, morpho-stylistic, syntactical-stylistic, and linguocultural aspects of the national-cultural features in the poet's work and identifies the aesthetic-expressive functions they perform within the poetic text. The results of the analysis show that Zulfiya Mo'minova is an artist who skillfully utilized the rich expressive potential of the Uzbek language, possesses a unique creative identity, and was able to create an impactful poetic style.*

Keywords: *linguopoetics, semantics, stylistics, national-cultural feature, phono-poetics, morpho-stylistics, syntactical-stylistic devices, linguoculture, literary text.*

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi yutuqlariga tayanib, antroposentrik yo‘nalishda rivojlanib bormoqda. Shaxs nutqi orqali uning tiliga, shu nutq mansub bo‘lgan matn qurilishiga e’tibor kuchaymoqda. Bu jarayonda matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik qatorida lingvopoetika ham o‘zbek filologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda. Zulfiya Mo‘minova she’riyati boshqalarda takrorlanmas iliqligi, kishi ko‘ngliga tez yetib borishi bilan kitobxonlarni mahliyo qilib oladi, desak adashmaymiz. Assonans, alliteratsiya kabi qator lingvistik birliklarni ishlatish orqali so‘z o‘yinlari yaratib, har bir qofiyani joyiga keltirib ifodalash faqatgina adabiyot san`atkorlariningina qo‘lidan keladi. Biz bu o‘rinda qo‘rqmasdan Zulfiya Mo‘minova ijodini aytaolamiz. Badiiy matnda tovush takrori, unlilarning cho‘ziq talaffuzi kabi fonetik vositalar shoirning ichki

kechinmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Zulfiya Mo‘minova she’rlarida bunday vositalardan foydalanish alohida o‘rin tutadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir tadqiqotlarda badiiy matnning lingvostilistik va lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, S. Karimovning “Zulfiya asarlari lingvostilistikasi” monografiyasi, D.Y. Yusupovaning poetik nutqda unlilarning fonografik vosita sifatidagi xususiyatlariga oid tadqiqoti hamda Zulfiya Mo‘minova ning she’riy to‘plamlari, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” qo‘llanmalari semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlari mazkur yo‘nalish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Zulfiya Mo‘minova she’riy matnlarining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida fonografik, leksik-semantik, morfostilistik, sintaktik-stilistik va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. She’riy misollar kontekstual jihatdan tahlil qilinib, ularda qo‘llangan til birliklarining estetik-ekspressiv vazifasi va badiiy mazmunni shakllantirishdagi o‘rni aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Belgining ortiqligi: (Osvensimda urushning dahshatli guvohi, yondirilgan bolalarning tuflichalari saqlanadi.) Aytish zarurki, shoiraning yigirmadan ortiq she’rlari urushning dahshatli, og‘riqli oqibatlariga bag‘ishlangan. Ikkinchi jahon urushidan qariyib yetmish yil berida turib ham shoira manfur urushning oqibatlarini his etib turadi. Jumladan, urush mavzusidagi she’rlarida so‘zning cho‘zib yozilishi — masalan, “Tuflichala-a-ar...” shaklidagi ifoda — voqelikning og‘riqli, cho‘zilib ketuvchi ta’sirini his qildiradi:

Tuflichala-a-ar...
Biriga qirmizi qon dog‘i tekkan,
Birining poyi yo‘q, birin ipi yo‘q.
Yirtilgan, qonxo‘rning pichog‘i tekkan
Birining yonini shilib o‘tgan o‘q.

Tuflichala-a-ar...
O‘sha qora kunda, notinch hovlida
Bolalar oyog‘in o‘pi-ib yig‘ladi. (“Tuflichalar” she’ridan)

Shuningdek, unlilarning birdan ortiq yozilishi qahramonning hayrat, taajjub holatini ifodalashda ham qo‘llaniladi (“O-O, ko‘zyosh tomgan oshni ichib bo‘lmaydi”). Bunday fonografik vositalar — alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) — shoira she’rlarida lirik qahramon ruhiyatidagi xursandchilik, xafagarchilik, kinoya, hayratlanish, norozilik kabi holatlarni aynan berishda faol ishtirok etadi. Shoira ijodida leksik-semantik munosabatlar — matniy ma’nodoshlik, frazeologik ma’nodoshlik, giponimiya, zid ma’nolilik — badiiy tasvirni boyitishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mahoratli ijodkor sifatida Zulfiya Mo‘minova nafaqat tayyor sinonimlardan, balki matn ichida ma’nodosh bo‘lib qoladigan so‘zlardan ham foydalanadi:

Men titrayman, hozirgina o‘tovdan qaytdim,
Ko‘zimdagi og‘rig‘larni ko‘zga olmangiz. (“Yolg‘iz kampir” she’ridan)
Yoki:
Gulyor Xanjar bobo, gul boshingizdan,
Siz kechgan dunyodan kechib bo‘lmaydi.
Bir kosa qo‘yishdi g‘am oshingizdan,
O-O, ko‘zyosh tomgan oshni ichib bo‘lmaydi. (“Xanjar aravakash xotirasiga” she’ridan)

Shoira she’rlarida lirik qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo‘llab quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda fonografik vositalar(alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabilar)dan unumli foydalana olgan.

Giponimik munosabatlar orqali shoira umumiy tushunchani (giperonim) aniq turlar (giponimlar) bilan ochib beradi. Masalan, “oila” giperonimi “ota”, “ona”, “bola” giponimlari orqali; “inson” giperonimi esa “ayol”, “erkak”, “nasl” giponimlari orqali she’riy matnda badiiylashadi. Shuningdek, zid ma’noli so‘zlar (lisoniy, kontekstual va frazeologik antonimlar) yordamida qarama-qarshi tushuncha, holat va obrazlar zidlantirilib, tasvirning ta’sirchanligi oshiriladi:

To‘rtta bolasidan ayrilgan ayol,
Ishonmay titradi: «Tushimmi– o‘ngim?»
U og‘ir yo‘llarga og‘ir bir savol,
U mening o‘lanim, u mening mungim. 3 (“G‘alaba” she’ridan)

Frazeologik iboralarning ma’nodoshligidan ham unumli foydalaniladi: bunday holatda ibora shakli she’riy matnga moslashtiriladi, mazmun esa saqlanib qoladi. Masalan, [yelkasiga shamol tegmoq] iborasi [omadi chopmoq], [baxti kulmoq] iboralari bilan ma’nodosh holda qo‘llanadi:

Tanglayim hasrat-la bosganmi doya,
Bir umr yelkamga shamol tegmadi.
Dilimga cho‘kkanmi og‘ir tosh-qoya,
Ostonamga omad boshin egmadi.

Bu — shoiraning tilga bo‘lgan nozik didi va noyob iste’dodidan dalolat beradi. Shuningdek, shoira ijodida ko‘p ma’nolilik va yangi so‘z yasashlar ham alohida o‘rin tutadi: an’anaviy leksik birliklar yangi kontekstda qo‘llanib, matnda kutilmagan semantik qirralarini namoyon etadi. Bunday yondashuv she’riy tilning ifoda salohiyatini kengaytirish bilan birga, o‘quvchida so‘zga nisbatan yangicha estetik idrokni shakllantiradi. Zulfiya Mo‘minova she’riyatida atoqli otlardan — xususan, tarixiy shaxs va joy nomlaridan — foydalanish alohida uslubiy ahamiyat kasb etadi. Shoira Qutlug‘ Nigorxonim, Saroymulkxonim, Barchinoy kabi tarixiy-afsonaviy siymolar nomini keltirib, o‘zini ularning avlodi sifatida his qiladi:

Menkim, xonlar bergan, sultonlar bergan,
Qutlug‘ Nigorlarning zuryodidirman.
Sohibqiron sevgan Bibixonimning –
Saroymulkxonimning avlodidirman. (“Mening bobolarim” she’ridan)

O‘rin-joy otlaridan “Vatan”, “O‘zbekiston”, “Buxoro”, “Narpay”, “Qoratov” kabi nomlar shoira she’rlarida markaziy o‘rin egallaydi. Diqqatga sazovori shundaki, shoira “O‘zbekiston” so‘zini she’r davomida atigi bir marta qo‘llaydi, keyingi o‘rinlarda esa unga to‘g‘ridan to‘g‘ri “Ona” deb murojaat qiladi — bu usul vatanni onalik obraziga aylantirib, she’rga chuqur emotsional ma’no yuklaydi. *“Ona, sandig‘ingda qonli ko‘ylak bor”* yoki *“Ona, ko‘kragingda olov yurak bor”* misralaridagi **Ona** so‘zi atoqli ot **O‘zbekiston** ma’nosini tashiyveradi.

Ona– O‘zbekiston,
Uying to‘la bola, yelkangda ketmon,
Jilmayding ustingda yamoqlik chopon.
Sendan olma ortib ketgan eshelon,
Mehr olib keldi yigirma vagon. (“Qamalda olmalar” she’ridan)

O‘quvchi tasavvurida O‘zbekiston urush davrida barcha qiyinchiliklarni o‘zzimmasiga olgan, o‘zidan ko‘ra farzandlarini, urushda qon kechayotgan yurtdoshlarini o‘ylayotgan zahmatkash o‘zbek bobodehqoni siymosida gavdalanadi.

Yarador dunyoga suv olib chopgan
O‘zbekiston–serfarzand ona.
Orqasida bir etak bola,
Men ham chopib, yuragim to‘lib,
«Bir etak»ning bittasi bo‘lib
Tinchlik uchun ovoz beraman. (“Tinchlik uchun ovoz beraman” she’ridan)

“Tinchlik uchun ovoz beraman” she’rida esa O‘zbekiston serfarzand ona sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, emotsional gaplar, his-tuyg‘u ifodalovchi undovlar (oh, voy sho‘rim, eh attang, bay-bay-bay kabi) va munosabat ifodalovchi undalmalar nutqning ekspressivligini ta’minlovchi asosiy vositalar sifatida faol qo‘llaniladi:

Eshikka termulib turgan, bolajon
Aqldan ozaman, bunday qarama.
Sog‘inchin yashinlar urgan, bolajon,
Mendan she’r so‘rama, qo‘shiq so‘rama. (“Bolalar uyining bolalariga” she’ridan)

Ritorik so‘roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Tasdiq yoki inkor mazmuniga ega bo‘lib, tinglovchidan javob talab qilmaydigan bunday gap shakllari qahramonning hayrati, quvonchi, shubhasi, g‘azabi kabi holatlarini ifodalashda keng qo‘llaniladi hamda ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik matnlarda faol ishtirok etadi.

Shoira badiiy uslubining individualligini ta’minlashda sintaktik vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Sintaktik parallelizm, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza va o‘xshatish kabi vositalar she’riy nutqning ta’sirchanligini oshirish, fikrni batafsil va atroflicha ifodalash, tasvir predmeti haqidagi ma’lumot ko‘lamini kengaytirish vazifasini bajaradi. Ritorik so‘roq gaplar esa lirik qahramonning hayrati, shubhasi, g‘azabi kabi ichki holatlarini ifodalashning muhim vositasiga aylanadi:

Men kimman?
Otam mening hozir dalada,
Sadolarim, aytgin, men kimman? (“Men kimman?” she’ridan)

O‘zbek tilida son kategoriyasini ifodalovchi [-lar] qo‘shimchasi Zulfiya Mo‘minova she’rlarida grammatik ko‘plik ma’nosidan tashqari kuchli emotsional-ekspressiv yuk ko‘tarib keladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoira bu qo‘shimchadan kamida olti xil semantik-stilistik ma’noni ifodalash uchun foydalanadi: hurmat bildirish, hurmatsizlik anglatish, jo‘shqinlik va ta’kidni kuchaytirish, baholashni yorqinlashtirish, noaniqlik-mavhumlik hamda tushkun ruhiy 5 holatni ifodalash. Masalan, “xayollarim”, “sog‘inchlarim” so‘zlaridagi [-lar] umumlashtirish va mubolag‘a ma’nosini yuzaga keltiradi.

Egalik kategoriyasi tahlilida ham qiziqarli holatlar kuzatiladi: shoira ba’zan II shaxs birlik qo‘shimchasini I shaxs ma’nosida qo‘llab, lirik qahramonning voqelikka bo‘lgan o‘ziga xos munosabatini ifodalaydi. I shaxs birlikdagi [-(i)m] qo‘shimchasi esa (“jonim”, “ko‘zim Vatan”, “bovrim”) mayinlik va erkalash ma’nosini kuchaytiradi. Kelishik kategoriyasi doirasida qaratqich va tushum kelishigi affikslarining qisqargan (belgisiz) shakllari she’riy vazn talabi bilan bog‘liq holda faol qo‘llanilishi kuzatiladi.Masalan:

Muzlayotgan suvga ma’yus termulib,
Yig‘ladim, “Ne bo‘lur, ne bo‘lur ertam?”
Sochimdagi qorni sidirib turib,
Sen deding: “Qo‘y, endi yig‘lama, erkam”.
Bilardim, bunisi so‘nggi erkalash,
Bilardim, g‘am yutar choralarimni.
Bilardim, bu ayoz muzga aralash,
Qo‘shib tuzlab ketar yaralarimni.
O‘ngimda borliqni yengdi oppoq tus,
Aytmading, aytmoqchi bo‘lgan so‘zingni.
Qadamlaring og‘ir, ortingdan ma’yus
Qor ko‘tarib ketdi bosgan izingni. (“Ketding” she’ridan)

Ushbu she’rda 3ta xalq maqoli shaklan o‘zgartirilib qo‘llangan. Bular:

1) Har kim o‘z boshiga yog‘gan qorni o‘zi sidiradi (Bu maqol mazmunan she’r mag‘ziga va lirik qahramonning ruhiy holatiga singdirilgan.);

2) Yarasini tuzladi (Azob berdi ma’nosida qo‘llangan.); 3) Qorlar yog‘di–izlar bosildi (Bunda lirik qahramonga aziyat yetkazgan “oshiq”ning ma’shuqa boshiga ayriliqni tashlab ketish holatini tasvirlaydi.)

Ijodkor izofalardan ham unumli foydalana olgan: tani devor, joni fido, baxti bekam,umri bayonim, devonayi dalli, sohibi kamol va b. Shoira she’riyatida sanoqli, biroq o‘ziga xos okkazional so‘zlar ham uchraydi. Masalan,

Mening hayratlarim gulzotlarimning
Jonidan jonimga o‘tgan ganjina.
Mening she’r yozishim nurzotlarimning
Qonidan qonimga o‘tgan xazina. (“Mening bobolarim” she’ridan)

Sheva so‘zlari. Ijodkorlar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va

muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga “badiiy nutqda muayyan estetik funktsiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Zulfiya Mo‘minova she’rlarida sheva so‘zlari kam ishlatilganligini kuzatamiz.

Masalan,

Urush to‘xtar, to‘xtamaydi belanchak,
Enam, bir kun titrar bug‘doy poyalar,
Baxshi tug‘ib iymanar yosh kelinchak,
Suyunchiga yuguradi doyalar. (“Front uchun bug‘doy o‘rdi ayollar” she’ridan)
Bu qordagi qonli iz
Bovrim, sening izingma?
Mung qoplagan g‘amli ko‘z
Jon-jigarim, ko‘zingma? (“Narpaylik baxshi” she’ridan)
Shu turish ertaga yo‘qman yo borman,
Dardimni aytayin kima, Qoratov?!
Nega men to shu kun tirnoqqa zorman,

Ayt, yomonlik qildim kima, Qoratov?! (“Er kishi qarg‘ishi” she’ridan)

Shu o‘rinda aytish zarurki, shoira she’rlarining aksariyati o‘zbek ayolini kuylashga; urush asoratlarini ko‘rsatib berishga hamda oddiy insonlar mehnatiniulug‘lashga, his etishga qaratilganligi bilan e’tiborlidir. Balki shu boisdandir Zulfiya Mo‘minova she’rlarida samimiyat, ravonlik, ixchamlik hamda falsafiylik barq urib turadi. Qaratqich kelishigi [-ning] o‘rnida [-(i)n] affiksini qo‘llash poeziyaning xarakterli xususiyatlaridan biri sanaladi. Shuning uchun badiiy ijodda bu shaklko‘p hollarda [-ning] bilan baravar ishlatiladi. Qaratqich kelishigining qisqargan holatda qo‘llanishi maxsus ekspressiv vazifa bajarmaydi. Faqat she’riy talab bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, Eshigin yonidan o‘tkazmaganlar.

Shuni aytish kerakki, [-(i)ng] affiksi tushum kelishigi qo‘shimchasi [-ni] ni ham almashtirishi mumkin.

Qo‘shni xotin eski devordan boqib
Ovsini tomonga uzatib sirin.
Qo‘lin belga qo‘yib, qattiq tutaqib,
Yomonlar tepsa ham tebranmas erin. (“Sog‘inch” she’ridan)

Qarataich kelishigi ma’nosi nutq jarayonida asosan [-ning] qo‘shimchasi va uning belgisiz shakli orqali namoyon bo‘ladi:

a) belgili qo‘llash:

Vatan degan so‘z bilan bog‘liq
Qayg‘um go‘zal, quvonchim go‘zal.
Ko‘zlarimning issig‘i shu so‘z,
Hayotimning mazmuni o‘shal.

b) belgisiz qo‘llash:

Kitob bilan nonni teng ko‘rgan
Ulug‘lar darsxonasi – Vatan!
Mehnat bilan sochi oqargan
Onaginam onasi – Vatan!

Kelishik affiksining bu ikki ko‘rinishi poetik matn tuzilishi, ohang va boshqa she’riy talablarga, jarangdorlikka, rifma talabiga mos ravishda shoira she’rlarida parallel ifodalangan.

Muhokama. Zulfiya Mo‘minova she’rlarida sintaktik shakl vositalari lug‘aviy vositalar bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Ular asar mazmunining tez va qulay idrok etilishini, she’rda o‘ziga xos jozibador ohangdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarning qo‘llanilishida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va mumtoz she’riyat an’analariga tayanish yaqqol seziladi — bu esa shoira ijodini milliy-madaniy zaminga chuqur bog‘laydi. Xususan, qaratqich va tushum kelishiklarining belgisiz (qisqargan) shakllari, egalik affikslarining o‘zaro almashinuvi kabi hodisalar nafaqat she’riy vazn talabidan, balki o‘zbek tilining ichki grammatik-uslubiy imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Bu esa Zulfiya Mo‘minova ijodini o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyati an’analarining tabiiy davomi sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, tilda ham har bir unsurning o‘z vazifasi, ma’no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog‘lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to‘la xabardor bo‘lgan, badiiy didi, so‘z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so‘z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi. ZulfiyaMo‘minova XXI asr o‘zbek she’riyatida ana shunday yuksak mahoratga erisha olgan yetuk namoyandalaridan biridir. Zulfiya Mo‘minova lingvopoetik vositalardan foydalanishda o‘zbek she’riyatining davrlar osha shakllangan va takomillashgan an’ana va mezonlariga amal qiladi. Zulfiya Mo‘minova favqulodda kashf qilgan lingvopoetik vositalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoiraning hayotni teran ko‘z bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan o‘ziga xos badiiy tafakkur, bir-birini to‘ldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik bo‘yoq, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qo‘llanilgan va matnga bog‘liq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar she’rdan she’rga ko‘char ekan, har gal o‘zlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor etadi va poetik ta’sirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.

2. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2006. –120 б.

3. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. –Т.: Meriyus,2017.– 140 б.

4. Йўлдошева Д., Ортиқава Ҳ. Лингвоперсонология –тилшуносликнинг мустақил соҳаси. Илмий рисола. – Тошкент: Paradigma, 2018.–72 б.

5. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т.,2007.– 112 б.

6.Yusupova D.Y. Poetik nutqda unlilar fonografik vosita sifatida//Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 32(1), 97-105.

7. Мўминова З. Бешикларни асрагин дунё. – Т.: Ғ.Ғулом, 1988.

8. Мўминова З. Ёнаётган аёл.–Т.: Ғ.Ғулом, 1992.

9. Hojiyeva S.H., Yusupova D.Y. Zulfiya Mo`minova she`riyatining semantik-stilistik, milliy-madaniy xususiyatlari//Buxoro-2023,98b.

10. www.ziyouz.com кутубхонаси.